



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ujhpl>

CULTURAL, SPIRITUAL, AND IDEOLOGICAL FACTORS IN INCREASING YOUTH POLITICAL ACTIVITY IN SOCIETY, AND THEIR OPPONENTS

Akhrorjon Kurbonovich Yusupov

Acting Associate Professor, Department of History

Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Kokand State University

Email: axrorjon201911@gmail.com

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ideology, national, awareness of national identity, cultural, spiritual, ideological, social activity of citizens, spirituality, culture, spiritual-enlightenment.

Abstract: The article studies the processes of strengthening the social activity of young people in the conditions of globalization, their upbringing under the influence of cultural, spiritual, ideological factors and the negative impact on the formation of this feeling. At the same time, the issues of instilling national-cultural, spiritual-ideological feelings in them by increasing the socio-political activity of young people were studied.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

JAMIYATDA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING MADANIY, MA'NAVIY VA MAFKURAVIY OMILLARI VA QARSHLARI

Axrorjon Qurbonovich Yusupov

Tarix kafedrasi v.b.dotsenti

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Qo'qon davlat universiteti

axrorjon201911@gmail.com

Qo'qon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mafkura, milliy, milliy o'zlikni anglash, fuqarolarning madaniy, ma'naviy, mafkuraviy, ijtimoiy faolligi, ma'naviyat, madaniyat, ma'naviy-ma'rifiy.

Annotatsiya: Maqolada globallashev sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ularni madaniy, ma'naviy, mafkuraviy omillar ta'sirida tarbiyalash va bu tuyg'uning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish jarayonlari o'rganiladi. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali ularda milliy-madaniy,

**КУЛЬТУРНЫЕ, ДУХОВНЫЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ
ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ И
ПРОТИВОДЕЙСТВУЮЩИЕ ИМ СИЛЫ****Ахроржон Курбонович Юсупов***Исполняющий обязанности доцента кафедры истории**Доктор философии (PhD) по политическим наукам**Кокандский государственный университет*axrorjon201911@gmail.com*Коканд, Узбекистан*

О СТАТЬЕ**Ключевые слова:** Идеология, национальная, осознание национальной идентичности, культурная, духовная, идеологическая, социальная активность граждан, духовность, культура, духовное просвещение.**Аннотация:** В статье исследуются процессы усиления социальной активности молодежи в условиях глобализации, ее воспитание под влиянием культурных, духовных, идеологических факторов и негативное воздействие на формирование этого чувства. Одновременно рассматриваются вопросы привития ей национально-культурных, духовно-идеологических чувств путем повышения социально-политической активности молодежи.

Kirish. Mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi erkin fikrlaydigan, o'z-o'zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib etadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasini davlat siyosati ustuvor yo'nalish qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tashkilot a'zolarining ichki madaniyati va ruhiy ma'naviyatini boyitish hamda mustaqil dunyo qarashini shakllantirish orqali ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni shu vazifa "madaniyat", "ma'naviyat", "mafкура" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berishlikni taqazo etadi.

Materiallar va metodlar. Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Ayni vaqtda bunday keng ko‘lamli ishlarimiz biz boshlagan islohotlarning faqat bir qismi, dastlabki qadamlar ekanini ta’kidlash lozim [1].

Muhokama va natijalar. Bizga ma’lumki, sobiq sho‘rolar davrida e’lon qilingan ilmiy va badiiy adabiyotlarda “ma’naviyat” madaniyat tushunchasining ajralmas bo‘lagi sifatida tahlil qilinib kelingan.

Bu olimlar yoki ijodkorlarning ma’naviyat masalasini “tushunmaganlari” uchun emas, balki, davlat siyosatida insonning ichki dunyosi va ruhiyati salohiyatini yuzaga chiqarish uning jamiyat hayotida faol bo‘lishiga, millat manfaatlarini himoya qilishga va uning yetuk millat vakili sifatida shakllanishdan davlat manfaatdor emasligida edi [2,174].

Madaniyat bu – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi sanaladi. “Madaniyat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “shaharlik”, “shaharga oid” bo‘lsa, uning ma’naviy izohi “odob-axloq”ni anglatadi. Demak, bugun Yangi O‘zbekistonni yaratishda milliy madaniyatni, ma’naviyatni yanada rivojlantirish g‘oyat muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Biz Yangi O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim.

Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kamol toptirish g‘oyat murakkab vazifa. Ayniksa bugungi kunda mafkuraviy kurashlar goh, oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega”[3,274].

Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlari bilan bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to‘la qalbini ifodalovchi ko‘p qirrali tushuncha[4,49].

“Ma’naviyat” tushunchasi juda keng qamrovli mazmunga ega. Rus tilidagi “duxovnost” tushunchasi aynan tarjima qilinsa, ma’naviyat emas, “ruhiyat” yoki “ruhoniyat” bo‘ladi. “Ma’naviyat” “duxovnost” tushunchasining tarjimasi aynan ko‘chirilgan nusxasi emas, balki muqobilidir. Ma’lumki, Yevropa falsafasi “axloq”, “ruh”, “iroda”, “go‘zallik” kabi tushunchalarni tadqiq etishda beqiyos natijalarga erishgan, teran tadqiqotlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, u ma’naviy hayoti yaxlit holda emas, bo‘lib o‘rganish an’anasiga sodiq qolgan. Chunonchi, nemis olimlari Gegel ta’limotida “ruh”, Shopengauer ta’limotida esa “iroda” borliqning o‘zi sifatida ahamiyat kasb etadi[5,12].

Ma’naviyat tushunchasi kelib chiqishiga ko‘ra ikki o‘zakka borib bog‘lanishi mumkin. Birinchisi bu tushuncha arabcha “ma’ni” o‘zagidan hosil bo‘lgan. “O‘zbek tilining izohli

lug'ati"da ma'naviyatning ikkinchi mazmuni "axloqiy" deb ifodalangan. Ma'naviyat nafaqat "ma'ni"ga oid mazmunda, shuningdek, "axloq" va "ruh", hatto "shaxsning huquqiy maqomi" mazmunlarida ham ishlatilib kelinmoqda.

Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Tilimizda "Ba'mani odam" degan ibora bor. Bu iboraga loyiq ko'rilish ulug' baxtdir. Va aksincha "Be'mani odam" deyish kuchli haqoratdir, bu – hayvonsifat deyish bilan barobar.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha[6,235].

Shu ehtiyojdan kelib chiqib oxirgi "ma'naviyat"ning mohiyati, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyolilari o'rtasida qizg'in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma'naviyatning ko'p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zohiriy va yashirin, ichki ruhiy-botiniy tomonlarini ham hamrab olganligadadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

O'zbekiston mustaqilligining tajribasi ma'naviy sohada olib borilgan siyosatning haqqoniy va hayotiy, samarali va davomiy ekanini batamom tasdiqladi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbayi bo'ladigan milliy g'oyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur.

Sir emaski, hozirgi vaqtda aksariyat odamlar "mafкура" degan so'zga biroz xadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafкура deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi.

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g'oya va ma'naviy yangilanish yo'nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi.

Afsuski, mazkur jabhada olib borilayotgan muayyan ishlar bilan birga, bir qator muammolar ham ko'zga tashlanmoqda"[7,292-293].

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda[8].

Davlat tizimida milliy mafkura rivoji bilan muttasil shug'ullanadigan kishilarning bo'lishi, bo'limlar tashkil etilishi zarurligi haqida talab, taklif va istaklar ham bayon etilmoqda. Bu juda o'rinlidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mafkuraviy ishlar umumxalq, umumdavlat ishidir.

Mafkuraviy ishlarning qo'yilishi, uning ko'lami va mazmunini, ahamiyati avvalambor, ana shu ishga mutassaddi bo'lgan kadrlarning ma'suliyatini qanchalik chuqur xis qilishlari, bilim boyliklari, amaliy tajribalariga bevosita bog'liq.

Millat ravnaqi, xalqimiz farovonligi, O'zbekistonning porloq kelajagi uchun jonini jabborga berib ishlaydigan xodimlar bo'lmasa, milliy istiqloq mafkurasidan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin.

“Mafkura” tushunchasi arabchadagi “mufakkir”, “mufakkiratuv” so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir. Mufkura tushunchasiga falsafiy adabiyotlar va lug'atda berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatdan har xil:

“Mafkura – jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy qarashlarining tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidan tashkil topadi [9,12]”.

“Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad – muddaolarini, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir [10,9]”.

“Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir[11,31]”.

“Mafkura (arab – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad – muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi[13,244]”.

Ularning barchasida mafkura jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida asoslab beriladi.

Unda manfaatlari ifodalangan ijtimoiy kuchlar va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, fikrlar asosida g'oyalar, g'oyalar asosida esa mafkura shakllanadi. Ya'ni, inson muayyan maqsadni mo'ljallab, uni nazariy jihatdan asoslasa va unga ko'pchilikni ishontirsa, u g'oyaga aylanadi. G'oyalar konkret inson, guruh, millat yoki jamiyatning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, manfaatlari ifodalab, ularning ishonch-e'tiqodi va faoliyatiga asos bo'lsa, mafkuraga aylanadi. Mafkura – turli guruh, toifa va qatlamlardagi kishilarning manfaatlari ifodalab, ijtimoiy hayoti va faoliyatini tartibga solib, harakatga keltiradi, g'oyalarning ro'yobga

chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun g'oya – ma'lum bir maqsad bo'lsa, mafkura uni amalga oshirish usuli va vositasidir. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g'oyalarda namoyon bo'lsa, uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan g'oyalar majmuasi mafkurani tashkil qiladi.

Har qanday mafkura jamiyat, uning tuzilishi, rivojlanish yo'llari haqidagi muayyan bilimlar, ularning asosida shakllanadigan baholar va maqsadlar tizimi sifatida chiqadi. Bunday bilimlar, baholar va maqsadlar tizimi bo'lmasa, kishilarda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash imkoniyati bo'lmaydi, davlat, jamiyat o'z taraqqiyot yo'lini yo'qotib qo'yadi[13,10].

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyat mafkurasining asosini tashkil etadi.

Professor I.Ergashevning ““Milliy” so'zini yangicha ma'noda, kengroq tushunish zarur. Uni faqat “an'anaviy” tarzda “millat” tushunchasi talqinida emas, mamlakatni yaxlit holda anglatuvchi atama sifatida ham qabul qilish muhim”[14,76], – degan fikri e'tiborga molikdir.

Yuksak ma'naviyatli shaxsda daxldorlikni his etish madaniyati yuqori bo'ladi. Milliy g'oyaga daxldorlik hissi yuqori odam turli g'arazli maqsadlarni o'zida ifoda etgan yot g'oyalarning jozibasiga uchib qolmaydi. Bizning fikrimizcha, fuqarolikni his etish mas'uliyati, Vatanni anglash, unga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash milliy-ma'naviy meros va umuminsoniy demokratik qadriyatlarga, qonunlarni hurmat qilishga, qonun ustuvorligiga, adolat tamoyillariga tayanish hamda insonni e'zozlash, unga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish madaniyati milliy g'oyaga bo'lgan daxldorlik hissini rivojlantiradi.

Ma'naviyatli shaxslar davr bilan hamnafas hayot kechiradilar. F.Ergashev va I.Ergashevlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, “Shaxslar davr mazmuniga va uning o'zgarishiga, jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga bevosita ta'sir ko'rsatadilar [15,20]”. Shu ma'noda bugun turli tahdidlar ta'sirida millatning o'zligidan begonalashuvi kuchayayotgan sharoitda uning vakillarining shaxs darajasidagi muhim mezoni milliy – ma'naviyatini asrab qolishga qo'shadigan hissasida o'z ifodasini topadi.

Birinchidan, madaniy-mafkuraviy omillar tufayli mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, tinchlik- osoyishtalik va fuqarolararo totuvlik, ular ijtimoiy-siyosiy faolligi tobora ortib boradi. O'zbekiston xalqi tinchlikning qadrini juda yaxshi biladi, uni asrash va mustahkamlash yo'lida bor kuch-g'ayratini ayamaydi. Tinchligimizni buzmoqchi bo'lgan qabih niyatli guruh va kimsalar xalqning nafratiga duchor bo'ladi.

Ikkinchidan, madaniy-mafkuraviy omillar tufayli iqtisodiy islohotlar yanada yuqori bosqichga ko'tarildi, bozor munosabatlari insoniy mazmun va ijtimoiy himoya tamoyili bilan boyitildi, yangi dunyoqarash va ma'naviyat sohibi bo'lgan tadbirkorlar sinfi shakllandi.

Uchinchidan, Madaniy-mafkuraviy omillar tufayli ma'rifiy islom rivojiga keng yo'l ochildi, u xalqning iymoni va turmushidan mustahkam o'rin egalladi. Toshkent shahrining 2007-yili "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2017-yili Toshkent halqaro islom akademiyasi hamda 2018-yilda Samarqandda "Imom Al-Buxoriy ilmiy markazi"ning barpo etilishi xalqimizning muqaddas dinimiz rivojiga qo'shayotgan ulkan hissasi jahon bo'ylab tan olinganini isbotladi[16,36].

Madaniy-mafkuraviy omillar tufayli ta'lim sohasi tubdan yangilandi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash tizimi yaratildi, ilm-fan rivojlandi, san'atimiz jahon sahnasiga chiqdi, sport elimizni dunyoga tanitdi.

Mamlakatimizda madaniy-mafkuraviy omillardan samarali foydalanish sababli xalqning e'tiqodi mustahkamlanmoqda, ertangi kunga ishonchi ortmoqda, millatning ruhi va safarbarligi ko'tarilmoqda, milliy g'urur tuyg'usi va iftixor hissi kuchaymoqda, odamlarda ijtimoiy-siyosiy faollik kuchaymoqda.

Ijtimoiy-siyosiy faol shaxs bu – qonun ustuvorligiga, adolat printsiplariga amal qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga tayanadigan, o'zligini anglagan, inson qadr-qimmatini eng oliy qadriyat deb biladigan, qalban uyg'oq, mustaqillik tafakkuriga, intellektual salohiyatga ega bo'lgan insondir.

Adabiyotlar tahlili. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida mafkura, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash negizlari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, ushbu qarashlar etnopsixologiya bilan bog'liq yondashuvlarda ham o'z ifodasini topadi. Misol uchun nemis faylasufi Vilgelm Vundt milliy o'zlikni anglash muammosini tadqiq qilar ekan, u "“millat”, “xalq” tushunchalarini tenglashtirgan holda o'zlikni anglashni til, afsonalar, din elementlari va urf-odatlar bilan birga o'rganishni tavsiya etadi[17,28]". Uning fikricha, etnopsixologik konsepsiyani tuzishda ma'naviy hayotning – til, afsonalar, urf-odat va marosimlar kabi tomonlarini psixologik tarzda o'rganish lozim.

Shuningdek, xorijiy psixologlar T.Adorno, G.Ollport, Simmons kabi olimlar asarlarida milliy o'zlikni anglashda irqiy va etnik ziddiyatlarni obro' talashish hamda shaxsning ayrim xususiyatlari bilan birga tushuntirishga harakat qiladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-tarixiy meros bugungi kunda butun dunyoda mashhur va boy ma'naviy-madaniy xazinalardan sanaladi. Xalqimizning mana shunday merosining shakllanishiga munosib hissasini qo'shgan buyuk allomalimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ko'pqirrali ijodida xalqlar turmush tarzi, e'tiqodi, urf-odat va an'analari, ruhiyati, o'zligini anglashiga oid diqqatga sazovor fikrlarni uchratish mumkin. Shunday buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiydir. U o'zining

“Fozil odamlar shahri” asarida yozishicha, odamlardagi ruhiy birlik, ya’ni odamlar orasidagi muayyan bog‘lanish, birinchidan, ular o‘rtasidagi mehr-oqibat kelishuviga asoslanadi, uning zamirida qabila, urug‘ munosabatlari yotadi, chunki ular bir ajdoddan tarqalgan [18,72]. Ikkinchidan, odamlar o‘rtasidagi ruhiy bog‘lanish ularning xulq-atvori, tabiati, fe’li va tilining umumiylikiga tayanadi. Allomaning xalqlarning o‘ziga xos jihatlari haqidagi fikrlari muayyan xalqlardagi o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarni va o‘zligini tushunib etishga xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy turli xalqlar urf-odati, marosimlari, e’tiqodini o‘rganishda qiyoslash metodidan foydalanadi. Natijada “xalqlarning milliy xususiyatlari-psixologiyasining shakllanishi tarixiy va tabiiy jarayondir[19,58]”, degan fikrga keladi.

Abu Ali ibn Sino alohida olingan inson yoki insonlar xulq-atvori, milliy xususiyati va shunga mos ruhiyatining shakllanish jarayonini tabiiy ruh, tabiiy quvvatlar bilan bog‘laydi. Tabiiy ruh, uningcha, yaxshi hidli narsalar tomon intiladi, ular bilan quvvatlanadi va ulardan oziqlanadi. Tabiiy quvvatlar esa, shubhasiz, tabiiy ruhdan kuch oladi[20,322].

XIX asrning oxiri – XX asrning boshilarida o‘zbek, qozok, tojik, qoraqalpoq tillarida turli janrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O‘tar kabi ma’rifatparvar allomalar ham Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tili, dini, urf-odatlarini, an’analari, turmush turzida umumiylik bo‘lsa-da, yashash sharoiti, jug‘rofiy joylashishi, kasb-hunari tufayli bir-birlaridan farqli tomonlari borligini, bu holat ularning o‘zligini anglashda ham aks etganligini o‘z asarlari orqali yoritishga xizmat qilganlar.

Milliy o‘zlikni anglash rivojida milliy tilning o‘rni beqiyos ahamiyatga egadir. Millat aloqa vositasi sifatida o‘z milliy tilida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning taraqqiyotini ta’minlashga hissa qo‘shib boradi va bu jarayon milliy o‘zlikni anglashning o‘rishiga imkon yaratadi. Milliy davlatchilik elementlari ushbu milliy tilning rasmiy mohiyati bilan mustahkamlanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotining demokratlashuvida har qanday yoshlardan faollik talab etiladi, chunki fuqaroning o‘zi yashash uchun qulay bo‘lgan muhitni yaratishga intilishi, mavjud ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etish yo‘llarini bilishi, shu yo‘lda tashabbuskorlik ko‘rsata oladigan fuqaro faol fuqaroga aylanadi.

Yoshlarda dunyoqarashning o‘zgarishi bu bevosita ijtimoiy hayotning ham o‘zgarishidir. Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar bu fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolroq ishtirok etishiga bog‘liqdir. Agar fuqarolar jamiyatda demokratiyani yuksak qadriyat deb bilib, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etsa, bunday jamiyat barqaror jamiyatga aylanadi. O‘z-o‘zidan faollik ham kuchayadi. Demokratik jarayonlar va fuqarolarning siyosiy faolligi o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Shunday ekan, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyat hayoti yanada demokratlashtiriladi. Demokratik jarayonlarda fuqarolarning faollik darajasi siyosiy

jarayonlarning bir mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Faollik darajasi qanchalik oshgani sari fuqarolarning jamiyat oldidagi mas’uliyati ham oshib boradi.

Siyosiy faol fuqaro o‘zi bilan birga jamiyat a‘zolarini ham ergashtiradi, jamiyatning demokratik institutlari orqali jamoaviy guruhlarning ehtiyoj va manfaatlariga birgalikda echim topadi, bu esa faollikning tezlashuvini anglatadi. Ayniqsa, bugungi shiddatli rivojlanish jarayonida siyosiy faollikni oshirishda innovatsion-ijtimoiy g‘oyalarni qo‘llash davr talabidir, ya’ni onlayn demokratiya tizimini qo‘llash fuqarolarning faollashishiga turtki bo‘ladigan o‘ziga xos omillardandir. Siyosiy jarayonlarda siyosiy faollikni kuchaytirish uchun, avvalo, fuqarolarda siyosiy ong, ishonch va natijadorlik mavjud bo‘lishi lozim. Siyosiy faollik mavjud jamiyatda jamiyat demokratlashuvi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://religions.uz/news/detail?id=561>
2. Отамуродов С., Отамуродов С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. – Тошкент. 2003, 174 бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021 йил – Б.274.
4. Маънавият луғати. –Тошкент, –Б.49.
5. С.Х. Носирхўжаев ва бошқалар. Маънавият асослари. – Тошкент, 2002, –Б. 12.
6. Иброҳимов А. Ёруғлик. –Тошкент; 2006, – Б. 235.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021 йил. – Б. 292-293.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.05.2019 йилдаги ПҚ-4307-сон. “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори, <https://lex.uz/docs/4320700>
9. Туленов Ж, Юсупов К, Фафуров З. Истиқлол ва тараққиёт мафқураси: мақсад ва йўналишлари. Тошкент. «Ўзбекистон», 1993, – Б. 12.
10. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент, «Ўзбекистон» – 2001, – Б. 9.
11. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар (олий таълим муаммолари учун қўлланма). Тошкент «янги аср авлоди», 2001, – Б. 31.
12. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент. «Шарқ» нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004, – Б. 244.

- 13.Каримов И.А.Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Тошкент «Ўзбекистон», 1998, – Б. 10.
- 14.Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Академия, 2011. – Б. 76.
- 15.Эргашев Ф., Эргашев И. Фидойилик – ҳаёт мазмуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 20.
- 16.Мусаев О ва бошқ. Маънавият асослари (Ўқув қўлланма) – Тошкент. 2020. – Б. 36.
- 17.Вундт В. Проблемы психологии народов. СПб.-Питер, 2001. – С. 28.
- 18.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 72.
- 19.Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 58.
- 20.Абу Али ибн Сино. Тиббий рисоалар. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 322.